OILAVIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Norqulov Husniddin Do‘sbekovich
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning shaxs tarbiyasi va jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni yori tilgan. Shuningdek, oilada milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish, ularning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: oila, oilaviy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, tarbiya, ma’naviyat, milliy an’analar, urf-odatlar.

Аннотация. В статье освещается роль семейных, национальных и общечеловеческих ценностей в воспитании личности и духовной жизни общества. Также рассматриваются вопросы формирования национальных ценностей у подрастающего поколения в семье, обеспечения его духовно-нравственного развития и взаимосвязи национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: семья, семейные ценности, национальные ценности, общечеловеческие ценности, воспитание, духовность, национальные традиции, обычаи.

Abstract. The article examines the role of family, national, and universal human values in personal development and the spiritual life of society. It also discusses the formation of national values among the younger generation within the family, their spiritual and moral development, and the interrelationship between national and universal human values.

Keywords: family, family values, national values, universal human values, upbringing, spirituality, national traditions, customs.

Oila odamlar va jamiyat orasidagi eng asosiy va muhim institutlardan biri bo‘lib, oilada tarbiya olish va hayotning ilk saboqlarini qabul qilish, insonning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy asoslari shakllanadi. Oilaviy qadriyatlar, o‘z navbatida, bu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu qadriyatlar nafaqat oila a’zolarining o‘zaro munosabatlarini, balki ularning jamiyatdagi o‘rni va ma’naviy-axloqiy saviyasini ham belgilaydi. Oilaviy qadriyatlar har qanday jamiyatning ma’naviy asoslarini, ijtimoiy munosabatlarini va insonning shaxsini shakllantirishda muhim

ahamiyatga ega. Shu sababli, oilaviy qadriyatlar jamiyatdagi barqarorlik va tinchlikning asosiy omili sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Ma’lumki, zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»dan tortib hozirgi kungacha barcha ijod ahllarining asarlariga nazar soladigan bo‘lsak, yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirish va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash masalasi asosiy o‘rinni egallab kelmoqda. O‘zbek oilasi o‘zida qadimiy ma’naviy qadriyat va an’analarimizni, udum va rasm-rusumlarimizni, ma’naviy, madaniy merosimizni saqlab kelgan va kelmoqda.

Sharq xalqlari o‘zligini anglash uchun o‘z milliy qadriyatlari va milliy madaniyatini asrab-avaylabgina yuksak ma’naviyatga ega bo‘ladi. O‘zbek xalqida o‘z qadriyatlari va o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oila yetakchi hisoblanadi. Oila har bir farzand qalbida eng pokiza tuyg‘ular shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Farzand aynan oilada dastlabki hayotiy ko‘nikmalarni egallaydi. Darhaqiqat, qadimdan milliy urf-odat va an’analarimizni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma’nan yetuk, mehr-oqibatli, saxovatpesha, o‘zgalar dardini his qila oluvchi, yiqilganga tirgak bo‘la oladigan insonlar qilib tarbiyalashda sog‘lom oila muhiti muhim o‘ringa ega bo‘lib kelgan. Ilmiy manbalarda ham qadriyat masalasi bo‘yicha: “Qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushunchadir”,- deb keltirilgan. Qadriyatlar o‘zbek xalqining bebaho boyligi sifatida madaniy-ma’rifiy hodisalar, urf-odatlar, an’analar zamirida inson qadr-qimmatining oshishiga xizmat qiladi. Oilada bolaga salomlashishdan tortib, to‘g‘ri ovqatlanish, kiyinish, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro muloqot, jamoatchilik ichida o‘zini tutish, suvga tupurma, non ustiga narsa qo‘yma, nonning uvog‘i ham non, yoshi ulug‘larning yo‘lini kesib o‘tma, ota-onangning gapini ikki qilma, ustozingni hurmat qil, atrofingga befarq bo‘lma kabi ma’naviy-ma’rifiy nasihatlarni eshitib, turli rivoyat, maqol, hikmat va nasihatlarni tinglab, xotiralarida saqlab voyaga yetadilar va bu orqali qadriyatlar singdirib boriladi.

O‘zimizga xos bo‘lgan mehnatsevarlik, sadoqat, samimiyat, ishonch, Vatanni sevmoqlik, adolat, poklik, to‘g‘rilik singari fazilatlar shaxsiy namuna sifatida ota-ona orqali farzandga beriladi. Urf-odat va an’analar oilaviy qadriyat sifatida ham farzandlarning hayot tarziga yoshliklaridan ota-onalariga ko‘mak berish, so‘ngra o‘z oilalari uchun qayg‘urish hissini singdirib borishda asosiy rolni bajaradi.

Shuningdek, keksa avlod vakillariga ko‘rsatilayotgan ehtirom zamirida pir-u badavlat onaxonlar-u otaxonlarimizni e’zozlash, ularning

o‘gitlari, pand-nasihatlariga amal qilish, keksaygan chog‘larida tayanch bo‘la olish singari qadriyatlar ham mavjud. Dasturxon atrofidagi yig‘inlarda keksa avlod vakillari xalqimizning nodir ijod namunalari - maqol, matallar, rivoyatlar-u hikmatlar orqali turli xil maishiy masalalar va muammolarga yechimlar ko‘rsatiladi. Keksaygan ota-onalarga moddiy ashyolar emas, balki oila a’zolarining shirin so‘zi va tabassumi, qalbini ko‘tarish va dalda berishdan ortiqroq narsaning o‘zi yo‘q.

G‘ulomxon G‘ofurov milliy an’analarga bag‘ishlangan maqolalari- dan birida milliy qadriyatlarning quyidagi ko‘rinishlarini tilga olgan: 1) tabiiy qadriyatlar; 2) iqtisodiy qadriyatlar; 3) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar; 4) ma’naviy qadriyatlar; 5) axloqiy qadriyatlar. Jumladan, «Ota-bobolarimiz ilm o‘rgatish bilan birga farzandlarimizga avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy-ma’naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirganlar»; «O‘zbeklarning aksariyati... yaqin odamlarning, qo‘shnilarning omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajadagi ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir»; «Iqtisodiy qadriyat - iqtisodiy munosabatlar jarayonida shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatlarni hisobga olish, halollik, poklik, bag‘rikenglik, ishonchlilik kabi fazilatlarning amal qilinishini anglatadigan tushuncha» .

Bizga ma’lumki, abadiy, o‘zgarmas narsa bo‘lmaydi, vaqt o‘tishi bilan insonlar o‘zgargani singari qadriyatlar ham transformatsiyaga uchraydi. Transformatsiya (lot. transformatio - qayta o‘zgarish, qayta hosil bo‘lish) o‘zgarishdir. Qadriyatlar transformatsiyasi o‘zidan-o‘zi ro‘y beradigan hodisa emas, uning negizida shakllangan normalar, qarashlar, qadriyatlar ijtimoiy taraqqiyot talablariga javob berolmay qolishi mumkin.

Milliy qadriyatlar faqat milliy ta’rif bilan chegaralanmaydi. Ularning mazmuni ana shu millatning tarixi, madaniyati, urf-odatlari, xalq ichidagi muhabbat, mehr va hurmatning ifodasidir. Milliy qadriyatlar har qanday millatning turmush tarzi, milliy yaratuvchilik, urf-odatlari va tabiatiga xos xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu qadriyatlar har bir xalqning shaxsiyat, axloq, madaniyat va ijtimoiy munosabatlarini belgilaydi.

Milliy qadriyatlarning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

1. Axloqiy qadriyatlar: Milliy qadriyatlarning asosiy qismlaridan biri axloqiy qoidalar va prinsiplardir. Bu qadriyatlar oilada, jamiyatda va ijtimoiy aloqalarda adolat, hurmat, mehribonlik, sadoqat va ishonch kabi tushunchalarni o‘rgatadi. Axloqiy qadriyatlar jamiyatda barqarorlik va tinchlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

2. Madaniy qadriyatlar: Milliy qadriyatlar o‘z xalqining madaniyati,

urf-odatlari va tarixiy tajribasi bilan yaqin bog‘liqdir. Milliy madaniyat o‘z ichiga san’at, adabiyot, musiqa, taomlar, raqslar va yoshlar tarbiyasini qamrab oladi. Bu qadriyatlar xalqning ma’naviy rivojlanishini ta’minlaydi va kelajak avlodlarga madaniyatni mustahkamlashni o‘rgatadi.

3. Diniy qadriyatlar: Milliy qadriyatlar ko‘pincha xalqning din va ma’naviyat sistemasiga asoslanadi. Diniy qadriyatlar adolat, yaxshi va yomonning ajratilishi, sabr-toqat va odamlarga hurmat ko‘rsatishga yordam beradi. Milliy qadriyatlar va dinning o‘zaro bog‘liqligi xalqning ijtimoiy hayotida va ma’naviy tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.

Milliy qadriyatlar xalqni yagona etnik va ijtimoiy birlikka aylantiradi, ularning kelajak avlodlarga yordam berishi va jamiyatda tinchlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar oila, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu qadriyatlar jamiyatdagi har bir a’zoning o‘z rolini, shaxs sifatida rivojlanishini va unga xos bo‘lgan vazifalarni aniq belgilaydi. Bularga:

1. Jamiyatdagi barqarorlik. Milliy qadriyatlar jamiyatda barqarorlikni saqlash va tinchlikni ta’minlashga yordam beradi. Insonlar o‘z qadriyatlariga asoslangan holda, adolat va o‘zaro hurmat prinsiplariga amal qilib, ijtimoiy muammolarni hal qilishga harakat qiladilar. Bu qadriyatlar, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka asos soladi.

2. Shaxsning rivojlanishi. Milliy qadriyatlar insonning ma’naviy va axloqiy kamolotini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Oilada olingan tarbiya, milliy an’analar va urf-odatlar har bir insonning hayotida asosiy rol o‘ynaydi. Milliy qadriyatlar yoshlarning yaxshi inson sifatida shakllanishini va jamiyatga foyda keltirishini ta’minlaydi.

3. Madaniy merosni saqlash. Milliy qadriyatlar xalqning madaniy merosini saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishga yordam beradi. Bu qadriyatlar milliy madaniyatning, urf-odatlar va tarixning ahamiyatini yoshlarga o‘rgatish va ularning milliy o‘zlikni anglashini ta’minlashga yordam beradi.

4. Inson huquqlari va tenglik. Milliy qadriyatlar insonning huquqlari va tengligiga hurmat bilan qarashni targ‘ib qiladi. Milliy qadriyatlarning asosida odamlar o‘rtasida teng huquqlar va imkoniyatlar taqsimlashishga yo‘l qo‘yiladi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatdagi ijtimoiy adolatni va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Milliy qadriyatlarga - odatlar, udum va qoidalar, rasm-rusumlar, atrof-muhitga munosabat hamda tarbiyani tashkil etuvchi tamoyillar kiradi. O‘zbek millatining oliy qadriyatlariga yana ko‘p ming yillardan beri davom etib

kelayotgan xalqimizning hashar tadbiri, ya’ni qo‘ni-qo‘shni, mahalla tomonidan obodonlashtirish ishlarida, imorat solishda, jamoat ishlarida xolisona faol ishtirok etish ishlari ham kiradi.

O‘z ona tilidan faxrlanish hissiyotini uyg‘ota olish - shaxsning keng dunyoqarashga ega bo‘lgan, ziyoli va madaniyatli, o‘z Vatanini sevadigan, qadriyatlarni ulug‘laydigan komil insonni tarbiya qilish demakdir.

Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqining asrlardan asrlarga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o‘zi tug‘ilib o‘sgan ona yurtiga ehtirom, o‘z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o‘tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko‘rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e’tibor berish singari ko‘plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi .

Milliy qadriyatlarni ham mohiyatiga ko‘ra, tabiiy, moddiy, ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy qadriyatlarga ajratish mumkin. Masalan, minglab yillar davomida shakllangan boy ma’naviy xazinamiz biz uchun ma’naviy qadriyat, halollik, poklik, ishonchlilik esa iqtisodiy qadriyatdir. Shunday bo‘lsa-da, ko‘pchilik mutaxassislar insonning o‘zi, hayoti, huquqi va erki, sog‘lom va farovon turmushini qadriyatlarning eng oliysi, deb hisoblaydi.

Xalqimizning minglab yillik boy tarixi, ma’naviy merosi, turmush tarzi, hayotiy qarashlari va e’tiqodidan kelib chiqqan holda muhim milliy qadriyatlarimiz ro‘yxati sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: ota-onaga ehtirom, tozalik, harakatda baraka, o‘zbek tili, diniy bag‘rikenglik, so‘z erkinligi, lafz (qonun, burch va kelishuvga sadoqat), yelkadoshlik, mehmondo‘stlik, rozi-rizolik va boshqalar.

Shu o‘rinda milliy qadriyatlar:

kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadi, rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo‘ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o‘ziga xos tarzda ta’sir qiladi;

kishilarning o‘zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko‘zga tashlanib turadi hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma’naviy asos bo‘ladi;

moddiy, ma’naviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda muayyan natija sifatida yuzaga kelishlari, kishilar uchun zaruriyat sifatida o‘ziga xos ahamiyat kasb etishlari, ularga foyda keltirishlari ham mumkin;

ijtimoiy rivojlanish jarayoni o‘zgarib, takomillashib, rang-barang jihatlar avloddan-avlodga o‘tadi, meros qoladi.

Milliy qadriyatlar tushunchasi muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarigina emas, balki ular yashayotgan hudud madaniy-ma’naviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, o‘tmishi, turmushi va yashash tarzi, millat hayotining tartib-qoidalari hamda ular bilan bog‘liq milliy xususiyatlar, jihatlar va boshqalarning ahamiyatini ifodalaydi. U umumiy qadriyatlar tizimida millatga xos bo‘lgan qadriyatlarning eng umumiy jihatlarini aks ettiradi.

Umuminsoniy qadriyatlar. Hozirgi davrda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadini hayotga tatbiq etish bilan hamohang tarzda bozor iqtisodiyotiga o‘tish, demokratik qadriyatlarni egallash, fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, shaxs erkinligini amalda joriy etish, siyosiy jarayonlarni erkinlashtirish, ko‘ppartiyaviylik tizimini demokratik me’yorlar asosida takomillashtirish kabi yangidan-yangi dolzarb vazifalar paydo bo‘ldi. Yangi jamiyat qurishdagi bu omillarning barchasi umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan qaraganda ko‘proq ma’naviyatga yaqin mezonlardir. Demak, umuminsoniy qadriyatlar quyidagilar:

sodiqlik;

xalqimiz ma’naviy saviyasini mustahkamlash va rivojlantirish;

insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyish qilishi;

Vatanparvarlik, insonparvarlik, tolerantlik.

Umuminsoniy qadriyatlar quyidagi uch jihati bilan ajralib turadi:

1. Qadriyatlarning barcha insonlarga taalluqliligi, ya’ni chaqaloqdan tortib, to keksa yoshdagi odamgacha birdek ta’sir kuchiga egaligi.

2. Qadriyatlarning barcha insonlar, qolaversa, insoniyat uchun muhimlik va zaruriyat sifatida ahamiyatga egaligi.

3. Barcha davlatlar umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda o‘zining ko‘p yo‘nalishli siyosatini amalga oshirishi va unga tayanishi.

Umuminsoniy qadriyatlarning eng oliy maqomi sifatida tarannum etgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiydir. U «Hayrat ul-abror» asarida ma’naviyatli insonni quyidagicha tasavvur qilgan: «Sen insonlarga foyda yetkazishni o‘zingga shior etding, shundan keladigan nafni o‘zingga yor aylading. Sening xalqqa ko‘rsatgan foydang shak-shubhasizdir, lekin bilib qo‘yki, bundan o‘zingga tegadigan naf ko‘proqdir. Kimki boshqalarga zarar yetkazishni odat qilsa, bundan elga emas, avvalo, o‘ziga jabr etgan bo‘ladi. Kimning xalq g‘amidin g‘ami bo‘lmasa, haqiqiy odam bo‘lsang, uni odam dema». Insoniyatning jamiyatga uyushib yashashi, kishilarning o‘zaro hamkorligi, jamiyat hayotining barqarorligi va farovonligini ta’minlashning ichki manbai ham ma’naviylik, ham

ma’rifiylikdir.

Bizningcha, umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

butun insoniyatga xos bo‘lgan tabiiy-tarixiy jihatlar - inson vujudining tirikligi, sihat-salomatlik, ijtimoiy faoliyatga qobilligi, ongi, bilimi, muomala vositasi;

jamiyat tarixi, o‘tmishi, kelajagi, umrguzaronlikning asosiy talablari, tartiblari, qonun-qoidalari, avloddan-avlodga o‘tadigan an’analar, urf-odatlar, marosimlar va boshqalar;

jamiyat a’zolarining eng yuksak orzu-umidlari, ezgu niyatlari, ideallari, g‘oyalari, maqsadlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, ular bilan bog‘liq xatti-harakati, faoliyati, o‘zaro munosabatlari;

madaniyat, ma’naviyat, fan, din, huquq, siyosat, mafkura va ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan bog‘liq yutuqlar, kashfiyotlar, yaratilgan boyliklar, ta’lim-tarbiya va ma’naviy kamolotning yo‘nalishlari, usullari, vositalari;

insoniyat rivojining hozirgi davri bilan bog‘liq mintaqalar, ijtimoiy tuzumlar, davlatlar oldida turgan va butun jahon ahamiyatiga molik eng umumiy olamshumul muammolar, dolzarb vazifalar, kelajakning istiqbollari;

sayyoramiz hududlari, davlatlari va ijtimoiy tuzumlaridan qat’iy nazar, hamma uchun umumiy foydalanish imkonini beradigan universal texnologiyalar, ishlab chiqarish, boshqarishni tashkil qilish, kosmonavtika, EHM, kibernetika va boshqa yo‘nalishlardagi umumjahon jamiyatiga ega bo‘lgan jarayonlar.

Umuminsoniy qadriyatlar insoniyat tarixining yaxlitligini ifodalaydi, u davrlar o‘tishi va ijtimoiy hayotning o‘zgarishi bilan bir qatorda takomillashib, rivojlanib, tobora ko‘proq xalqlarni, millatlarni, insonlarni yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi va kamol toptiruvchi kuchga aylanib boradi. Insonparvarlik va ijtimoiy adolat, erkinlik va ozodlik, barqarorlik va farovonlik, ezgulik va taraqqiyotga bo‘lgan intilish umuminsoniy qadriyatlarning muhim jihatidir.

Umuminsoniy qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, unga mansub turmush, oila, urug‘, qabila, elat, millat, xalq, davlat va boshqalarning ijtimoiy holati, ma’naviy hayoti, axloq, huquq, din, madaniyat, nafosat, san’at, ilm-fan sohalari bilan bog‘liqlikda ham namoyon bo‘ladi. Bu borada ular o‘z tabiatiga ko‘ra amaliy faoliyatning haqiqiy maqsadlarini ifodalaydi, muayyan ahamiyatga ega bo‘ladi, kerakli axborot beradi, jamiyat qoidalaridan ijodiy foydalanish, kundalik xatti-harakatlarning ma’naviy asoslarini to‘g‘ri belgilash imkonini yaratadi.

Umuminsoniy qadriyatlar qaysi hududda rivojlangan bo‘lsa, o‘sha joyda ma’naviyatning unib-o‘sishi uchun muhit, har tomonlama shart-sharoitlar tug‘iladi. Bu borada N. Temirova: «Umuminsoniy qadriyatlar - jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi maqsad va intilishlarini o‘zida ifoda etadi» - deb ta’kidlaydi.

Xulosa o‘rnida keltirish mumkinki, jahon madaniyati turli o‘lka va mintaqalarning o‘ziga xos madaniyatlari majmuidan iborat. Qanday millat, qanday xalq bo‘lmasin, baribir, uni muayyan insonlar tashkil etadi. Insonlarning har biri o‘z qiyofasi, o‘z fe’l-atvori, fikr-andishalari, o‘z hayot yo‘li va orzu-niyatlariga ega. Ammo ularning barchasi bani odamga mansub bo‘lgani tufayli ularning barchasi uchun umumiy bo‘lgan muayyan qadriyatlar majmui ham mavjuddir. Bu qadriyatlar har bir millat, har bir inson uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ko‘r-ko‘rona inkor etilishi, tan olinmasligi butun bashariyat uchun halokatli bo‘lishi mumkinligini jahon tarixi tajribasi ko‘p marta isbotlagan. Albatta, bunday qadriyatlar barcha insonlar, barcha millatlar tomonidan birdaniga, azal-ibtidodan anglab yetilgan, idrok qilingan, deb bo‘lmaydi. Umuminsoniy qadriyatlar har bir millatning ma’naviy mulkiga aylanishi uchun asrlar, balki ming yillar kerak bo‘ldi. Hatto bugun ham barcha insonlar, barcha elat va toifalar ularni tugal anglab yetgan, deyish qiyin.

Kezi kelganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz o‘zaro chambarchas bog‘lanib ketganini, ularni bir-biridan ajratish mushkulligini ta’kidlash joiz. Ayniqsa, ko‘p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma’nosini anglash, milliy madaniyat, turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlash muhim omil bo‘lib kelmoqda. Zero, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o‘ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga xos bo‘lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. — Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. — B. 707.

2. G‘ofurov G‘. Milliy an’analar // Xalq so‘zi, 1993-yil, 11-fevral. — B. 2.

3. Jalolov H. Oila, mahalla va maktab hamkorligi. Tarbiya. № 2 (6), 2006. — B. 13.

4. Qodirova O. Oilaviy kelishmovchiliklar. Tarbiya. № 2 (6), 2006. — B. 22.

5. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. — Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot, 2010. — B. 241.